

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |
ISSUE 1**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
5. Джураева Нигора Авазовна СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
6. Yusupova Dildora Dilshatovna YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
8. Xojiev Tunis Nurkosimovich YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
10. Bultakov Begzod Abdurasulovich INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz


МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

E-mail: mutabar_aziz@mail.ru

“SAB'AI SAYYOR” DOSTONIDA ARABCHA SO‘ZLAR VA BADIY SAN’ATLARNING UYG‘UNLIGI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126825>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida badiiy san'atlar va arabcha so'zlarning poetik ifodasi chuqur tahlil qilingan. Xususan, shoirning "Sab'ai sayyor" dostonida qofiya va badiiy san'atlarning qo'llanilishi, shuningdek, arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlar orqali yaratilgan badiiy obrazlar keng o'rganilgan. Maqolada Navoiy asarlarida uchraydigan badiiy san'atlarning turli ko'rinishlari, jumladan, ma'naviy va lafziy san'atlarning poetik funksiyalari batafsil yoritilgan. Ayniqsa, arabcha so'zlar ishtirokidagi baytlarning badiiy tuzilishi, ularning ohangdorligi va poetik ta'sirchanligi tahlil qilinib, bu unsurlar orqali yaratilgan ma'nolar tizimi o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida Navoiy she'riyatida arabcha so'zlarning qo'llanilishidagi o'ziga xos uslublar ham ko'rib chiqilgan. Xususan, shoir tomonidan arab tilidan kirib kelgan so'zlarning semantik va stilistik jihatlari tahlil etilib, ularning Navoiy badiiy mahorati va she'riyat estetikasiga ta'siri ochib berilgan. Maqolada shuningdek, Navoiy tomonidan qo'llangan qofiya tizimi va uning badiiy-estetik ahamiyati ham atroflicha tadqiq etilgan. Mazkur maqola Alisher Navoiy ijodiy merosini yanada chuqurroq anglashga, uning badiiy san'atlarni qo'llashdagi noyob mahoratini baholashga va she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Sab'ai sayyor, badiiy san'at, qofiya, arabcha so'zlar, ma'naviy san'at, lafziy san'at, poetik mahorat, badiiyat, she'riyat.

Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna

Senior Lecturer at the International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: mutabar_aziz@mail.ru

**THE HARMONY OF ARABIC WORDS AND RHETORICAL DEVICES
IN THE POEM “SAB'AI SAYYOR”****ANNOTATION**

This article provides an in-depth analysis of the poetic expression of rhetorical devices and Arabic words in the works of Alisher Navoi. In particular, the study examines the use of rhyme and rhetorical devices in the poem "Sab'ai Sayyor" as well as the artistic images created through words borrowed from Arabic and Persian.

The article thoroughly explores various forms of rhetorical devices found in Navoi's works, including both semantic and verbal artistic techniques. Special attention is given to the structural composition of verses containing Arabic words, their melodic nature, and poetic impact. The study investigates how these elements contribute to the overall meaning system of Navoi's poetry.

Furthermore, the research analyzes Navoi's distinctive stylistic approaches in incorporating Arabic words into his poetry. The semantic and stylistic aspects of these borrowed words are examined, shedding light on their role in enhancing Navoi's poetic mastery and aesthetic vision. Additionally, the article delves into the rhyme schemes used by Navoi and their artistic and aesthetic significance. This study aims to deepen the understanding of Alisher Navoi's literary legacy, assess his unique mastery of rhetorical devices, and reveal the distinguishing features of his poetry.

Keywords: Alisher Navoi, Sab'ai Sayyor, rhetorical devices, rhyme, Arabic words, moral artistic technique, verbal artistic technique, poetic mastery, artistic expression, poetry.

Мадаева Муътабархон Амануллаевна
Старший преподаватель Международной
исламской академии Узбекистана
E-mail: mutabar_aziz@mail.ru

ГАРМОНИЯ АРАБСКИХ СЛОВ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СРЕДСТВ В ПОЭМЕ «САБАИ САЙЁР»

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится углубленный анализ поэтического выражения художественных средств и арабских слов в творчестве Алишера Навои. В частности, исследуется использование рифмы и художественных приемов в поэме «Сабаи сайёр», а также создание художественных образов с использованием заимствованных из арабского и персидского языков слов. В статье подробно рассматриваются различные виды художественных средств, встречающихся в произведениях Навои, включая как семантические, так и словесные художественные приемы. Особое внимание уделяется структурному построению стихов с арабскими словами, их мелодичности и поэтическому воздействию. Исследуется, каким образом эти элементы формируют систему смыслов в поэзии Навои. Кроме того, анализируются уникальные стилистические подходы Навои при использовании арабских слов в его поэтических произведениях. Рассматриваются семантические и стилистические аспекты данных заимствованных слов, раскрывается их роль в обогащении поэтического мастерства и эстетического видения Навои. Дополнительно в статье изучаются системы рифмовки, применяемые Навои, и их художественно-эстетическое значение. Данное исследование направлено на углубленное понимание литературного наследия Алишера Навои, оценку его уникального мастерства в использовании художественных приемов и раскрытие особенностей его поэзии.

Ключевые слова: Алишер Навои, Сабаи сайёр, художественные средства, рифма, арабские слова, духовные художественные приемы, словесные художественные приемы, поэтическое мастерство, художественное выражение, поэзия.

Kirish. Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki badiiy tafakkur va poetik mahoratning yuksak namunasi yaratgan mutafakkirdir. Uning ijodi Sharq she'riyatining yuksak namunalaridan biri bo'lib, unda badiiy san'atlarning keng qo'llanilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, "Sab'ai sayyor" dostonida arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlar bilan boyitilgan badiiy uslublar poetik ifodaning yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Navoiy asarlarida qofiya, tajnis, mubolag'a, tashbih, ishtiyoq kabi badiiy san'atlar keng ishlatilgan bo'lib, ular shoirning ijodiy mahoratini va uning o'zbek adabiy tilini mukammallashtirishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa, arabcha o'zlashmalar ishtirokidagi baytlar Navoiy she'riyatining musiqiyiligi, mazmunan teranligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida arabcha so'zlarning qo'llanilishi, ularning badiiy san'atlar bilan uyg'unlashuvi va she'riyatga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, "Sab'ai sayyor" dostonidagi qofiya va san'atlarning o'ziga xos xususiyatlari ham ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari. Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostonida badiiy san'atlarning keng qo'llanilishi shoirning poetik mahoratini va adabiy tildagi yuksak tajribasini namoyon etadi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- Qofiya va badiiy san'atlarning uyg'unligi – Dostonning baytlarida qofiya tizimining mukammal ishlatilgani, ayniqsa, tajnis va tarse' san'atlari bilan uyg'unlashgani aniqlandi. Bu usullar she'ning musiqiyli va estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.
- Arabcha so'zlarning poetik roli – Navoiy ijodida arabcha so'zlar faqat lug'aviy boylik sifatida emas, balki poetik obraz yaratishda muhim vosita sifatida qo'llangan. Ushbu so'zlar ma'nosining chuqurligi, ularning ramziy va falsafiy mazmuni doston poetikasini yanada boyitgan.
- Lafziy va ma'naviy san'atlarning qo'llanilishi – "Sab' ai sayyor" dostonida lafziy san'atlardan tajnis, ishtiyoq, radif kabi usullar samarali qo'llanilgan. Shu bilan birga, ma'naviy san'atlar – tashbih, mubolag'a, tazod va istiora kabi usullar she'ning mazmunan boyishiga xizmat qilgan.
- Poetik ohang va badiiy-estetik ta'sir – Dostonning poetik tuzilishida qofiya va badiiy san'atlarning uyg'unligi she'riy matnga alohida ohangdorlik va estetik go'zallik baxsh etgan. Natijada, asarning badiiy qimmatini va ifodaviy kuchi yanada oshgan.
- She'riyatning semantik chuqurligi – Navoiy o'z she'riyatida arabcha so'z va iboralardan foydalanish orqali asarlarining semantik chuqurligini oshirishga erishgan. Bu esa uning ijodining nafaqat estetik, balki falsafiy jihatdan ham yuksak ekanini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy she'riyatida badiiy san'at va arabcha so'zlar uyg'unligining mukammal namunalari mavjud bo'lib, ular shoir ijodining poetik xususiyatlarini chuqur o'rganish uchun muhim ilmiy material hisoblanadi.

Asosiy qism. So'z she'riyatda, xususan, badiiy asarda poetik obraz sifatida namoyon bo'ladi va asarda badiiyat mohiyatini aniqlashda asosiy teoretik o'rinni egallaydi. Alisher Navoiy adabiy qarashlari bilan badiiyat masalasiga katta ahamiyat berdi. Har bir asarda mavzu, g'oya, syujet muhim o'rin egallasa, ularning ma'lum shakl asosida uyg'unlashuvi badiiyat usuli hisoblanadi. Navoiy asarlari jamiyat oldida e'tiborli bo'lishi uchun shakl va mazmunga katta urg'u beradi.

Shoir "Xamsa" asaridagi deyarli barcha dostonlarida voqelikni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. "Sab' ai sayyor"da badiiyatni "so'z" bilan bog'laydi.

کاملی چونکه مدعا قیلسا	که در معنی نی ادا قیلسا
سوز لباسیدین ایتماین آرا	خوبلار ایلاکیم جزو خارا
جیقا آلمای اغیز دریجه سیدین	نفع تاییمی بیرو نتیجه سیدین
جون کییب سوز حریرو دیبا سین	دلکش ایلاب جمال زیبا سین
باده درین یوزنی لعل فام ایلاب	کونکول ایوانیدین خرام ایلاب
حیقسا تاشقاری تن سرا بییدین	بلکه حلقوم تنکنا بییدین
سالور انداق جهاندا غوغایی	کاینات ایجرا بر عللایی

کیم خلیق نی در کی لار ایلار لال یوق بلکه خوش مقال ایلار [1.19].

"Komile chunki muddao qilsa
 Ki, duri ma'nini ado qilsa,
 So'z libosidin etmayin oro,
 Xo'blar uylakim xazu xoro.
 Chiqa olmay og'iz darichasidin,
 Naf' topmay birov natijasidin.
 Chun kiyib so'z hariru debosin,
 Dilkash aylab jamoli zebosin.
 Bodadin yuzni la'lfom aylab,
 Ko'ngul ayvonida xirom aylab,
 Chiqa toshqori tan saroyidin,
 Balki hulqum tangnoyidin,
 Solur andog' jahonda g'avg'oye,

Koinot ichra bir aloloye.

Kim, xaloyiqni darki lol aylar,
Lol yo‘q, balki xushmaqol aylar”.

Bu misralarda Navoiy badiiyatni nozik va latif, gulli ko‘ylak kiygan husni dilkash go‘zalga o‘xshatadi. Bu yerda “xushmaqol” aylashi sezgi a‘zolariga jonli ta‘sir etishi, bu mazmunni tushungan o‘quvchini lol qilishi ifodalangan. Shoir tashbeh yaratishda fors, arab so‘zlariga murojaat qiladi. Shu ma‘noda Navoiy an‘anaviy ma‘nodan cheklanib, misralarni jarangdor va jozibador qilishga intilgan.

Boshqa bir misrada:

[1.50] تينمايين ايلار ايردى نطاره شاه نى قىلدى عشق بيجاره
“Tinmayin aylar erdi nazzora,
Shohni qildi ishq bechora”.

Bunda shoir نظارة va عشق arabcha so‘zlar orqali ma‘noni yanada ta‘sirchan ifodalagan. Bu yerda arabcha o‘zlashmalar shohning oshiq bo‘lib qolgani va sevgilisini kuzatayotgani syujetini ifodalash uchun yaxshi vosita bo‘lib xizmat qilgan deyish mumkin.

شه جو بيلدى تامل ايتى بسى ايشكا جاره تخيل ايتى بسى
[1.59] ليك عاشق ايشى كانى جاره عشق ايتار اول ايلنى بيجاره
Shah chu bildi, taammul etti base,
Ishga chora taxayyul etti base.
Lek oshiq ishiga ne chora,
Ishq etar ul elni bechora.

Shuningdek,

[1.60] عاشق اولغان كه كيجماكاي جاندين عشق بيحد براق دورور آندين
“Oshiq o‘lg‘onki kechmagay jondin,
Ishq behad yiroqdurur ondin”.

Misralarida عشق va عاشق ishq va oshiq so‘zlari ishtirok etgani ishtiyoq san‘atini yuzaga keltirgan. Ma‘lumki, o‘zagi bir so‘zlar arab tilida turli vaznlarda ifodalanishi mumkin. Bu so‘zlar adibning til mahorati tufayli, shu bilan birga, badiiy tafakkur salohiyati, turk, arab, fors tillarini qo‘llashdagi iqtidori voqeani kuchaytirishga xizmat qiladi.

توشتا عشقين هم ايلادى مفهوم بولدى معشوقى هم انكا معلوم [1.89]
“Tushta ishqin ham ayladi mafhum,
Bo‘ldi ma‘shuqi ham anga ma‘lum”.

Bu misralarda عشق va معشوق so‘zlari ishtiyoq san‘atini ifodalayapti, shu bilan birga, arabcha so‘zlar معلوم va مفهوم – “ma‘lum, fahmlangan, tushunilgan” sinonim so‘zlarining ishtiroki bu misralardagi ohangdoshlikni tashkil qilib qofiyalangan.

Badiiy san‘atlar haqida gap borar ekan, Alisher Navoiy ijodida badiiy san‘atlar bo‘yicha A.Hojjahmedov, S.Hasanov, Y.Is‘hoqov, M.Yo‘ldoshev, K.Mullaxo‘jayeva kabi olimlar ko‘pgina ma‘lumotlar berishgan. Lekin arab tili bilan bog‘liq badiiy san‘atlar yo‘nalishi izchil o‘rganilmagan. Shu sababli, “Sab‘ai sayyor” dostonidagi arabcha so‘zlarning badiiy san‘atlar ifodasidagi jahatlarini ko‘rib chiqish joiz.

Ma‘lumki, jahon adabiyotida qofiyadan foydalanish badiiy mahoratning muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Sharq shoirlari azaldan qofiya vositasida she‘riy asarlarning ohangdorligi, serjiloligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berganlar. Asrlar davomida xilma-xil qofiya san‘atlari shakllangan.

Zulqofiyatayn. “Bayt misralarida ikki so‘zni qofiyadosh qilib keltirish san‘ati zulqofiyatayn (qo‘sh qofiya keltirish) san‘ati deyiladi. Har qaysi baytdagi qofiyadosh ikki so‘z misralar oxirida ketma-ket keltirilishi yohud misralarning turli o‘rnida keltirilishi mumkin” [3.218].

Masalan:

[1.205] اوز ايشيمدا تفكر ايردى منكا نى تفكر تحير ايردى منكا
“O‘z ishimda tafakkur erdi manga,
Ne tafakkur, tahayyur erdi manga”

Arab tili leksikonidagi تخير – تفكر (tafakkur – taxayyur) so‘zlari zulqofiyataynni shakllantirmoqda.

Shuningdek, bunday badiiy san’at dostonning har bir sahifasida aynan arabcha o‘zlashma vositasida 4-6- baytlarda uchraydi.

“Agar ikki so‘z misra oxirida kelsa, bu xil qofiya mutakarrin qofiya deyiladi” [3.218].

ارض جر مين قيليب بيتى تقسيم ايلادىنيك هر برنى بر اقليم [1.5].

“Arz jirmin qilib yeti **taqsim**,
Aylading har birini bir **iqlim**,”

Qofiyadosh ikki so‘z misralarda yonma-yon emas, balki ikki o‘rinda kelsa, ular mahjub qofiya deyiladi.

انكا ظاهر تقدمي انى سنكا ليكن تقدم ذاتى [1.13]

“Anga zohir **taqaddumi** oti,
Sanga lekin **taqaddumi** zoti”.

Baytlarda qofiyalar shunday xildadir...

Tarsi’. “Bayt misralaridagi barcha so‘zlarning qofiyadosh bo‘lishi hodisasi shu istiloh bilan atalgan” [3.222].

نى حواسى دا بير نى خامس هم تى جهاتى دا بير نى سادس هم [1.16]

“Ne **havosida** bir ne **xomis** ham,
Ne **jihotida** bir ne **sodis** ham”.

Arabcha so‘zlar ishtirok etgan quyida keltirilgan barcha so‘zlar qofiyadoshdir.

Tajnis. Tajnisli qofiyalarni she’riy asarda qo‘llash ham qofiya san’atlaridan hisoblanadi. Ma’lumki, tajnisning o‘n ikki turi mavjud bo‘lib, she’riyatda shularning aksariyatidan foydalanib kelingan [3.222].

اوز ايشيمادا تفكر ايدى منكا نى تفكر تحير ايردى منكا

“Tojvarlarga‘a boj etib **ta‘yin**,
Shohlarga‘a xiroj etib **ta‘yin**” [2.205].

Musajja’. “Saj’li, qofiyali” ma’nosida bo‘lib, baytlari ichki qofiya qofiyali bo‘lgan she’riy asarlar shunday ataladi” [3.226].

مانى آشفته شاه حالتى دين متحير بولوب ملالتى دين [1.52]

“Moniy oshufta shoh **holatidin**,
Mutahayyir bo‘lub **malolatidin**”.

“Tajziya. (bo‘lak-bo‘lak qilmoq) ilmi bade’ istilohlaridan bo‘lib, bayt misralarining har birini ikki bo‘lakka ajratib, misralardagi birinchi bo‘laklarni ham, ikkinchi bo‘laklarni ham o‘zaro qofiyalash san’atidir” [3.229].

طمع اوز ملكين ايلادى آباد كونكى ملكين هم ايلادى برباد. [1.63]

“Tama’ o‘z **mulkin** ayladi **obod**,
Ko‘ngli **mulkin** ham ayladi barbod”

bayti tajziya san’ati asosida bitilgan.

Yuqorida mumtoz qofiya badiiy san’atining “Sab’ai sayyor” dostonidagi arabcha o‘zlashmalar ishtirokidagi baytlarda sanab o‘tildi.

Ma’naviy san’atlar: mubolag‘a, tashbih, tamsil, husni ta’lil, tajohuli orif, tashxis, intoq, talmih, laff va nashr, ruju’, istiora, tansiq, muqobala, kinoya, irsoli masal, tazmin, savol-u javob, tavshih, iqtibos, iltifot, muammo;

Lafziy san’atlar: tajnis, iyhom, tanosub, ishtiyoq, tazod, ta’dil, raddul ajuz, tardu aks, jami’, taqsim, tafriq, jam’ va taqsim, jam’ va tafriq, takrir, mukarrar, tazmini muzdavij, kitobot, talmi’, muvozana, tarix, raddi matla’, insho – turlari mavjud.

Bu san’atlarni arabcha so‘zlar ishtirokidagi baytlar va ularning tahlili alohida bir ilmiy ishga imkoniyat yaratadi. Bunday badiiy san’at namunalari Alisher Navoiy ijodi tilining ilmiy jihatdan mufassal tahlil qilinishiga imkon beradi.

Navoiy o‘zining ilmiy merosi bilan inson ruhiyatining erkinligi, uning ichki olami, his-tuyg‘ularini ifodalab, ma’naviyatni boyitishga katta hissa qo‘shgan. Adibning yuksak salohiyati, ma’naviy salobati bilan jiddiy asarlar bitib, katta yutuqlarga erishgan va o‘z zamonasining ulug‘ olimlari qatoridan munosib joy egallagan.

Xulosa

Alisher Navoiy ijodida badiiy san'atlarning keng qo'llanilishi uning poetik mahoratini va she'riyatning badiiy-estetik qimmatini yuksaltirishga xizmat qilgan. Xususan, "Sab'ai sayyor" dostonida qofiya va turli badiiy san'atlarning ishlatilishi she'rga ohangdorlik, mazmunan chuqurlik va tasviriylik baxsh etgan. Navoiy arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarni mahorat bilan qo'llagan holda, ularning ma'nosini chuqurlashtirib, milliy she'riyat rivojiga katta hissa qo'shgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shoir o'z asarlarida lafziy va ma'naviy san'atlardan keng foydalangan bo'lib, bu usul she'riyatning ta'sirchanligi va estetik go'zalligini oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, arabcha so'zlar va iboralar orqali yaratilgan poetik ifodalar Navoiy asarlarining ohangdorligini oshirgan hamda ularning mazmunini boyitgan.

Umuman olganda, Navoiyning badiiy san'atlardan foydalanish uslubi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham adabiyotshunoslar uchun qimmatli ilmiy material bo'lib qolmoqda. Uning ijodi nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki o'zbek she'riyatining badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Sab'ai sayyor. Ilmiy-kritik tekst. (Tayyorlovchi: Porso Shamsiyev). – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1956.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, yettinchi jild. "Xamsa", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor". – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011.
3. A.Hojjahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. S.Hasanov. "Sab'ai sayyor" ning badiiyatiga doir. // Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari// maqolalar to'plami. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Yo.Is'hoqov. Navoiy poetikasi. – Toshkent.: Fan, 1983.
6. M.Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent.: Fan, 2008.
7. K.Mullaxo'jayeva. Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
8. Alisher Navoiy, Qomusiy lug'at, II jildlik. – Toshkent: AKADEM nashr, 2019.
9. Is'hoqov Yo. Tazod. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970.
10. Is'hoqov Yo. Tashbeh. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970.
11. Is'hoqov Yo. Ishtiqoq. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1972.
12. Is'hoqov Yo. Tardi aks. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1971. .

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000